



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

BERDAQ IJODIDAGI JASORAT VA VATANPARVARLIK G'oyalri

Kalbayeva Aruxan Jengisbayevna

Toshkent pediatriya tibbiyat institutining

4-bosqich 433-guruh talabasi

Email: kalbayevaaruxan@gmail.com

Tel: +998946376622

ANNOTATSIYA

Qoraqalpoq adabiyotida xalqona ijodi va xalqning xaqligini kuylagan ijodkor shoir, chinakam xalq qaxramonini o'z sherlarida yartgan xaqiqatiga sodiq va Navoiy bobomizni o'ziga ustoz bilgan ardoqli shoir Berdaq hayoti-ijodiga nazar solib xalqchil shoir she'rlarining mazmunini o'rganish haqida fikr mulohaza yuritamiz.

Kalit so'zlar: shoir, hayoti, ijodi, she'riyati, adabiy meroslari.

ABSTRACT

We will look at the life and work of Berdaq, a creative poet who sang folk works and the people's justice in Karakalpak literature, who was true to the truth of creating a true folk hero in his poems, and who considered our grandfather Navoi as his teacher, and we will reflect on the meaning of the folk poet's poems.

Key words: poet, life, work, poetry, literary heritage.

АННОТАЦИЯ

Мы рассмотрим жизнь и творчество Бердака – творческого поэта, воспевавшего народные произведения и народное правосудие в каракалпакской литературе, верного истине создания в своих стихах настоящего народного героя и считавшего своим дедом Навои учителем, и мы поразмышляем над смыслом стихов народного поэта.

Ключевые слова: поэт, жизнь, творчество, поэзия, литературное наследие.

KIRISH (ВВЕДЕНИЕ / INTRODUCTION)

Dunyoda turli xalqlar bo'lsada ammo har bir xalqning o'z manaviy qadriyatlari va milliy g'ururiga aylangan buyuk allomalari, shoiru, ulamolari bor. Shu jumladan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

qoraqalpoq xalqining shoiri betakror ijodi bilan nom qozongan shoir, xalq kuychisi Berdaq hisoblanadi. Uning asl ismi Berdimurod Qarg‘aboy o‘g‘li bo‘lib Berdaq shoirning tahallusi hisoblanadi. Shoir Berdaqning tavallud topgan joyi haqida bilish unchalik ham qiyin emas uning quydagi “Dengiz balig‘in bermadi” she’ri qayerda tavallud topganligini yaqol isboti desak adashmagan bo‘lamiz.

Qarmoq tashlovdim dengizga,

Dengiz balig‘in bermadi.

Ollo nazar solsin bizga,

Ko‘z yoshim nega ko‘rmadi”

Xitoy, Qo‘ng‘irot bilar bo‘ldi,

Avliyoga tunar bo‘ldi,

Do‘sst yig‘lab, yov kular bo‘ldi,

Dengiz balig‘in bermadi.

Men borgandim solga tushib,

Sol emas, ne holga tushib,

Alifday edim, dol tushib,

Dengiz balig‘in bermadi.

Qanday bo‘ldi bu zor zamon,

Elning boshida sur tuman

Xudoyim bergay-da omon,

Dengiz balig‘in bermadi.

Qanday bo‘larkan holimiz,

Io‘q-da, yegulik molimiz,

Ochilarmi ikbolimiz,

Dengiz balig‘in bermadi.

Ushbu she’ridan malum bo‘ladikiy hozirgi Moynoq tumanining Amudaryoni Orolga tutashtirgan irmoqlar sohilida tavallud topganligini bilib olish mumkin.



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

ABIYOTLAR TAHЛИLI VA METODOLOGIYA (ЛИТЕРАТУРА И МЕТОДОЛОГИЯ / METHODS)

Berdimurod xalqning quli,

Sahroning sariq bulbuli-deb kuylangan shoir o'zi yozgan she'rlarida, dostonlarida zahmatkash xalqning boshidan o'tkazgan og'ir kunlarini o'zining she'rлari bilan afsuslangancha qog'ozga bitgan. Dengiz balig'ini bermadi she'riga muvofiq nola qilgan shoirning dunyoga kelishi haqida xalq orasida ha xil rivoyatlar mavjud. Ushbu satrlardagi bitiklarni o'qigan bugungi avlod o'sha paytlarni ko'z o'ngida yaqqol namoyon qilib olishi unchalik ham qiyin emas. She'rni o'qigan hozirgi zamonamaiz adabiyotining ixlosmatlari Orol chekinib ketgan ekan-da deb o'yashi mumkin. Yo'q, dengiz ham daryo ham baliqqa to'la bo'lган lekin kemalaru ov qurrollari zo'ravonlarning qo'llarida edi, ba'zi joylarda kambag'allarga ov qilish ma'n etilgandi. Baliqlarga to'la daryo va dengizdan kambag'alning rizqu nasibasini Allohdan so'rab yutdoshlarini sabr-toqat va bardoshlilikka da'vat etgan shoir bu dunyodanadolat va erkinlik izlagan edi. Shoir dastlabki bilimlarni avval ovul makabida, so'ngra Qoraqum eshon madrasasida taxsil olib Urganch, Buxoro shaharlarning qishloqlarida safarlarida ham ma'rifat nurlarini izlagan edi.

NATIJALAR (РЕЗУЛЬТАТЫ / RESULTS)

Navoiydan savod ochib,

Fuzuliydan durlar sochib.

Maxtumqulini o'qiganda,

So'zin tavob qilar edim-deb dunyoviy ma'naviyat madad izlagan. Berdaq she'riyatining takrorlanmas bir qirrasi uning insoniy mardligidadir. U o'zining xalq so'zini aytishda zolim dushmanlarining qilichidan qo'rwmaganligi uning quydag'i "Yoz kelurmi" she'ridan ham bilishimiz mumkin.

Dovul turdi, tumon yurdi,

Fuqaroga yoz kelurmi?

Xovlimning qamishin surdi,

Fuqaroga yoz kelurmi?

Jonni olar qorasovuq,

Yoz kelmasday bo'ldi youvuq,

Umr bo'yi shunday xo'rlik,

Fuqaroga yoz kelurmi?



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

Yovgonim yuk, ichay desam,
Ko‘ligim yo‘q ko‘chay desam,
To‘sagim yo‘q, to‘say, desam,
Sho‘rli elga yoz kelurmi?

Yurgan yerim tog‘, taqir cho‘l,
Bog‘liq oyoq, bog‘liqdir qo‘l,
Qachon bizga ochilar yo‘l,
Sho‘rli elga yoz kelurmi?

O‘z davrining qozi-beklariga, zo‘ravonlariga qarshi ochiq oydin haqiqatni she‘r bilan bitish shoirlarning mardigagini nasib etadi. Shuning uchun ham, mashhur qirgiz adibi Chingiz Aytmatov Berdaq ijodi bilan tanishganidan so‘ng: Berdaq-haqiqatning oldida yigit bo‘lib kurashdi, degan edi. Berdaqning asalari ko‘pgina jahon tillariga tarjima qilingan. Ayniqsa, o‘zbek tilida Mitemir va Shuhrat domlalar, rus tilida Semyon Lipkin va Naum Grebnevning tarjimalari.

MUHOKAMA (ОБСУЖДЕНИЕ / DISCUSSION)

Berdaqning tarjimai xoli va ijodiga oid ma’lumotlarni o‘rganar ekanmiz uning hayoti juda ham qiyinchilik va mashaqqatlarga boy bo‘lganligi va doimiy kambag‘llik asosida hayot kechirganligi va shuncha qiyinchiliklarga qaramasdan, o‘zining asarlarida bag‘rikenglik, sahiylik kabi tushunchalarni uchratish mumkin. Berdaq she’rlarining aksariyati kambag‘al, beva-bechoralarning ayanchli hayoti, ulaning og‘ir mehnati boy-zodagonlarning ularga nisbatan qilgan shafqatsizligi, zo‘ravonligi va adolasizligiga bag‘ishlangan. Uning she’rlarida insonparvarlik tenglik, saxiylik,adolat, vatanparvarlik, mehr-shaqat, qahramonlik va mardlik, mustaqillik, milliy ozodlik va haqiqat uchun kurash, mehr-muhabbat kabi umuminsoniy va milliy qadriyatlar o‘z aksini topgan.

Berdaq o‘zi yashayotgan tuzumni, uning tartiblarini tanqid ostiga oladi. Shoirlarning fikricha, mavjud siyosiy tuzumda faqat adolasizlik, haqsizlik, ta’magirlik, o‘zboshimchalik va boshqa insonga xilof illatlar hukm suradi. Berdaq xuddi Navoiy kabi odamlarni axloq-odobiga qarab ikkiga; yaxshi va yomonga bo‘ladi. Berdaq she’riyatida bolalarni tarbiya qilish, kattalarga hurmat, yosh avlodga vatanparvarlik, davlatni boshqarayotganlarga odillik, kabi birqancha istedodlarni o‘z sheri bilan



Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

xalqqa namoyon qilgan, o‘z xalqiga muhabbat, xalqlar o‘rtasida do‘stlik va birodarlik g’oyalarini singdirishga intildi. Berdaqning yuksak insonparvarlik ruhi bilan sug’orilgan adabiy, ijtimoiy-siyosiy va falsafiy g’oyalari hozirgi mustaqillik sharoitida ham o‘z tarbiyaviy ahamiyatini saqlab qolmoqda. Yoshlar uchun chin ma’noda o‘rnak bo‘la oladi. Berdaqning she’r va dostonlari xalq ommasining turmushini xolisona va haqqoniy tasvirlab berishi bilan ajralib turadi. Berdaq o‘zining Soliq, Bo‘lgan emas, Bu yil kabi she’rlarida xon va beklarning olib borgan siyosatni qoralaydi, ularning mehnatkash xalqqa o‘tkazayotgan zulmni, shafqatsizligini tasvirlaydi. Berdaq insonni yuksaklikka ko‘taradi, xalqni hurmat qilishga, ularga yordam berishga chaqiradi.

XULOSA (ЗАКЛЮЧЕНИЕ / CONCLUSION)

Shoir ijodini o‘rganish borasida xulosamiz o‘rnida quydagilarni takidlaymiz har bir maqsad yo‘lida odimlash zamonalarda va makonlarda o‘zimiz joy tanlamasdan xalqga murojat qilgan adib ijodini yaxshlab o‘rganishimiz zarur deb bilamiz. Shoir yashagan mushkul iqt sodiy qiyinchiliklarni ham nazardan chatda qoldirmasdan zamonning qiyinligini qiyin bo‘lganda ham oddiy fuqarolarga qiyin bo‘lganligini tushunishimiz shoir she’riyatida doimo barxayotdir. Jamiyatimiz va davlatimiz erishayotgan barcha yutuqlarimiz, inson qadri ulug‘ bo‘lgan diyor-Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lidagi yutuqlardir. Biz bunyodkor xalqimiz bilan birga bunday ezgu ishlarni davom ettirishimiz va oldimizga qo‘ygan katta-katta marralarga albatta erishishimiz zarurdir. **“Yangi O‘zbekistonni barchamiz birgalikda barpo etamiz!” Shavkat Mirziyoyev, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti.**

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Mirtemir tarjimasi Berdaq saylanma G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at. nashriyoti. Toshkent - 1978-yil.
2. “Ma’naviyat yulduzları” (Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, Toshkent, 1999-yil) kitobidan olindi.
3. Давкараев Н. Очерки по истории дореволюционной каракалпакской литературы?. Т., 1959.
4. Nurmuxammedov M. Qoraqalpoq adabiyoti tarixi. Т. 1978.
5. Tojiboyev A. Sir qo‘schiqlari. Т. 1970.
6. Berdaq. Tanlangan asarlar. Т. 1978.

Proceedings of International Educators Conference

Hosted online from Rome, Italy.

Date: 25th January, 2024

ISSN: 2835-396X

Website: econferenceseries.com

- 
7. Kaipberganov T. Gumroxlar. Roman. T., 1978.
 8. <https://uz.wikipedia.org/wiki/>
 9. <https://uz.wikipedia.org/wiki/Berdaq>
 10. <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
 11. <https://www.president.uz/oz/lists/view/6917>